



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA BANK BIZNESI EKOTIZIMLARINI QO'LLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li

Annotatsiya. Bank biznesi ekotizimlarinig takomillashuvi va tasnislanishi keltirilgan. Shuningdek masofadan turib banklarda moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish va bu orqali foydalanuvchilar soni ortishi bankning kredit va depozit miqdorini ko'payishi bilan bog'liq mavjud muammolar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari faoliyati, banklarda biznes ekotizini rivojlanishi, kredit va depozitlar.

Bugun davlatlarning geosiyosiy jarayonlari chuqurlashuvi va odamlarning tarqoq holda faoliyat yuritishlari davlatlar o'rtasida to'siqlar va cheklovlar sharoitida qulay transchegaraviy o'zaro hamkorlik zaruratini paydo qildi. Korxonalar uchun transchegaraviy to'lovlar har doim me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, valyuta yig'implari va vaqt xarajatlari bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar bilan birga keladi. Shu sababli, «2024-yilgi to'lovlar ekotizimi transchegaraviy to'lovlarni oddiy, tejamkorlik bilan amalga oshirish uchun yangi raqamli ishlov berish texnologiyalarini taqdim etishga qaratilmoqda»¹.

Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar, shuningdek, bank hisob varaqlarini masofadan boshqarish (mijoz banki, internet banking, mobil banking, sms banking) foydalanuvchilar sonining ortib borayotganligi to'lovlar uzluksizligini ta'minlash, yangi innovatsion mahsulotlardan foydalanish, bank xizmatlari ommabopligini oshirish uchun turli to'lov tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish, to'lov tizimlari uchun yagona axborot muhitini shakllantirish, ularning nazorati va monitoringini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi. Qayd etish joizki, savdo tashkilotlaridagi treyderlar parallel ravishda mahalliy va xalqaro kartalarga xizmat ko'rsatadi.


¹ <https://www.globenewswire.com/global-mPoS-Terminals-Market-Report-2021-2025-Grow-by-6-01-Billion.html>

1-jadval

Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisob raqamlari o'sish dinamikasi²

Yil (1-yanvar holatiga)	Mijozlar soni	Hisob varaqlar soni
2013 yil	1285424	4622770
2014 yil	1359831	4289556
2015 yil	1432849	5030704
2016 yil	1515004	5364838
2017 yil	1638673	5809172
2018 yil	1755492	6469921
2019 yil	1880634	7263621
2020 yil	2094262	7740964
2021-yil	2145157	8270560
2022-yil	2264419	8839315
2023-yil	2383682	9408070

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Milliy ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni 2022 yil 1-yanvar holatiga 2383682 tani tashkil etib o'zining o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan 2021-yilning shu davriga nisbatan 119263 taga oshgan. Shuningdek, hisobvaraqlar soni esa 2021-yilga nisbatan 568755 taga oshib, 9408070 tani tashkil etmoqda. Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisobvaraqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar tijorat banklari va to'lov tizimining xo'jalik yurituvchi subektlari uchun kafolatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy qilishni o'z ichiga oladi, bu butun iqtisodiyotni to'liq raqamli o'zgartirishga olib keladi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mijoz turlari bo'yicha masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, ming nafar³ (1-yanvar holatiga)

² Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

³ Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar (mobil ilovalar, internet-banking, sms to'lov) soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 20203384 tani tashkil etmoqda. Agar 2012-2022 yillar holati tahlil etilsa bu ko'rsatkich 2012-yilda 56735 kishi bo'lgan bo'lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga 356 barobar ko'pni tashkil etmoqda. Buning asosiy sababi sifatida bugungi kunda aholi tijorat banklari mobil ilova dasturlaridan keng foydalanib kelayotganligidir.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida mijoz turlari bo'yicha masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, ming nafar⁴ (1-yanvar holatiga)

2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchilarning umumiy soni 20203,4 ming nafarni, shundan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 2021-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 146,1 ming nafarga oshib 968,5 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar esa 2021-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 5486,2 ming nafarga oshib 19234,8 ming nafarni tashkil qilmoqda. Shunday xulosa qilishimiz mumkinki, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni yillar kesimida faqat o'sish tendensiyasini nomoyon etib ushbu turdagi xizmatlarga talab yuqoriligi natijasida vujudga kelmoqda.


Bundan tashqari, Markaziy bankning kliring hisob-kitob tizimi respublikada faoliyat yurituvchi chakana to'lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalaridan foydalangan holda kliring operatsiyalari natijalari bo'yicha banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha hisob-kitob banki funksiyasini ham bajaradi. Markaziy

⁴ Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

bankning kliring tizimi orqali onlayn to'lovlarni amalga oshirishga qiziqish bildirgan tashkilot va idoralar soni muttasil ortib bormoqda. Bugungi kunda u orqali 30 dan ortiq xizmat turlari uchun to'lovlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda ommaviy o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish axborot-ma'lumot terminallarining keng tarmog'i mavjud bo'lib, bu plastik kartochka egalariga kechayu kunduz xizmat ko'rsatish imkonini beradi, terminallar, bankomatlar va o'z-o'zini ta'minlash xizmati tashkil etilgan.

Mahalliy tijorat banklari xalqaro to'lov tizimlari (VISA, Mastercard va UnionPay) bilan o'zaro hamkorlikda rezidentlar uchun respublika hamda xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi kobeydjing bank kartalarini muomalaga chiqarish yanada kengaytirilib, 2023-yilning 1-yanvar holatiga chiqarilgan kobeydjing bank kartalari soni 1,7 mln.dan ortiqni tashkil etdi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni, mingta⁵ (1 yanvar holatiga)

3-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 2022-yildagi 27,1 ming donadan 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 7,1 ming donaga ortib, 34,2 ming donani tashkil etmoqda. Agar ushbu ma'lumotlarni 2014-yil 1-yanvar holati bilan taqqoslasak 11,1 mingtadan, 2023-yil 1-yanvar holatiga 3,1 barobarga oshib 34,2 ming donaga yetdi. Kartalar sonining jadal o'sishi Xalq banki 1,31 mln. dona, ANORBANK 1,03 mln. dona, Ipak Yo'li banki 626,2 ming dona, Agrobank 549,1 ming dona va TBC Bank 528,0 ming donalarda kuzatilgan. Muomaladagi kartalar soni bo'yicha Xalq banki 6,96 mln. dona, Agrobank 3,93 mln. dona va Ipoteka-bank 3,13 mln. dona bilan yetakchilik qilmoqda. 2022-yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda bank kartalariga asoslangan chakana to'lov tizimlarining infratuzilmasini hamda mavjud infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilganligi bilan izohlash mumkin. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining ortib borayotganligi hamda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga keng targ'ibot ishlari olib borilishi natijasida ushbu ko'rsatkich oshayotganligini ko'rishimiz mumkin.

⁵ Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida bank infratuzilmalari, turizm hamda boshqa ob'ektlarga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 57 foizga oshib, 2023 yil 1 yanvar holatiga 20,4 mingdan ortiqni tashkil etdi.

HUMO milliy to'lov tizimining funktsionali, infratuzilmasini rivojlantirish va ommabopligini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida, hisobot yilida jami bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida HUMO bankomatlaridan o'tkazilgan amaliyotlar ulushi 2021 yildagi 35 foizdan 49 foizgacha oshishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Szymanowska M. et al. An anatomy of commodity futures risk premia //The Journal of Finance. – 2014. – T. 69. – №. 1. – С. 453-482.
3. Нурмухаметов Р. К., Воскресенская Л. Н., Мясникова Е. Б. Банковские экосистемы в России: сущность, виды, регулирование// Финансовые рынки и банки. – 2021. – №8. – с. 33–38.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., 2021. 455 с.
5. Allen F., Carletti E., Gale D. Interbank market liquidity and central bank intervention //Journal of Monetary Economics. – 2009. – Т. 56. – №. 5. – С. 639-652.